

развития туризма / Л. Ю. Хусаинова, С. Б. Кипчакова // Студенческий вестник. – 2019. – № 9-1(59). – С. 5- 7.

8. <http://thematicsjournals.in/index.php/tje/article/view/801>

9. KhusainovaL.Yu. (2021). Modern innovative technologies of teaching. American Journal of Research, 5(5-6, May-June), 23–28. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5288913>

10. Хусаинова, Л. andМаматкулова, К., 2021. О проблемах художественного перевода. O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari, 1(1), pp.159-162.

11. Хусаинова, Л., 2021. Проблемы внедрения инновационных технологий в учебный процесс по иностранному языку для подготовки кадров сферы туризма. Республикаанская 33-междисциплинарная дистанционная онлайн-конференции на тему "Научно- практические исследования в Узбекистане", 33(9), pp.30-32.

12. Хусаинова, Л., 2020. Разработка новых методических принципов для подготовки специалистов. "Сервис" илмий-амалий журнал, 4(1), pp.190-192.

“QORAQALPOQ TILI” DARSALARIDA MUAMMOLI MA’RUZANI QO’LLANISH ORQALI LINGVOMETODIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH HAQIDA

Seytkasimov D.B.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrası
professori pedagogika fanları doktorı
dawlet8080@mail.ru

Annotaciya: Ma’ruza jarayonida talaba-filologlarning lingvometodik kompetensiyasini shakllantirish olib boriladigan o‘qish jarayonidagi yetakchi fan «Qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi» hisoblanadi. Maqolada qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi va lingvometodik kompetensiyani shakllantirish texnologiyasi amalga oshiriladigan lingvistik tsiklning fanları bo‘yicha muammoli ma’ruzalarni tuzish usullarini ko‘rib chiqildi.

Tayanch so‘zlar: ma’ruza, muammoli ma’ruza, axborot ma’ruza, talaba-filolog, personifikatsiya, kasbiy kompetensiya, lingvometodik kompetensiya.

Ключевые слова: лекция, проблемная лекция, познавательная лекция, студент-филолог, персонификация, профессиональная компетенция, лингвометодическая компетенция.

Key words: lecture, problematic lecture, cognitive lecture, student-philolog, personification, professional competence, lingua-methodological competence.

Ma’ruza, boshqa yuqori o‘quv yurtlari mashqlari kabi, o‘qituvchiga o‘zini eng a’lo darajada ko‘rsatish imkonini beradi, buning natijasida talabalarding o‘z faniga bo‘lgan qiziqishini belgilaydi. Professor A.A. Murashovning «Pedagogik ritorika» (2001) asaridagi «O‘qituvchi so‘zlovchi emas, balki tinglovchi» degan fikri o‘qituvchi-metodist va talaba-filologlar – bo‘lajak tilshunos-o‘qituvchilar o‘rtasidagi aloqani samarali tuzish uchun motivatsion asos va aksioma hisoblanadi.

Oliy ta’limning zamonaviy didaktikasida oliy o‘quv yurtining ta’lim jarayonini tashkil etishning dasturiy shakli bo‘lgan ma’ruza keyingi o‘n yilliklarda olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Bir tomondan, ma’ruza materialining mazmuni masalalari doimo dolzarb bo‘lib, boshqa tarafdan, ma’ruza metodologiyasida innovatsion izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda ma’ruzalarning tuzilishiga «ko‘p hollarda zamonaviy talaba oddiy qanday o‘qishni bilmasligi» ham sezilarli ta’sir etmoqda: u «ko‘pincha o‘qituvchining aytganlarini qanday yozishni bilmaydi, yoki hamma narsani yozadi, yoki umuman hech narsa yozmaydi. Talaba ko‘pchilik hollarda ma’ruza materiali bilan ishlashni bilmaydi» [1]. Shu sababli, professor A.G. Kazakovning fikri bo‘yicha, «oliy o‘quv yurti ma’ruzasini optimallashtirishning eng muhim usullaridan biri talabalarda ma’ruza materialini tuzatish, asosiy narsani belgilash, ta’lim materialining bo‘limlarining o‘zaro aloqasi va o‘zaro tushinishni sezish qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi» [2].

Tarixiy nuqtai nazardan ma’ruza – bu yaxshi tashkillashtirilgan tarkibga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurtidagi ta’limning asosiy turi bo‘lib, dasturiy asosda «mavzuni shakllantirish, reja va mustaqil ish uchun taklif etilgan adabiyotlarni yetkazish, taklif etilayotgan ish rejasiga qat’iy rioya etish» [3].

XXI asr kasbiy ta’lim pedagogikasida turli sabablar bilan ma’ruzalarning har xil turlari ajratiladi: kirish, ma’ruza-axborot, kundalik, tematik, izohli, muammoli, vizual ma’ruza, binar, ma’ruza-konferentsiya, ma’ruza-konsul’tatsiya, yakunlovchi, ma’ruza-provokatsiya, ma’ruza-tadqiqot, ma’ruza-dialog va boshqa. [4].

Ma’ruzalarning samarodorligi o‘qituvchi tomonidan ma’ruzalarni tayyorlash va o‘tkazish jarayonida ijrosi zarur bo‘lgan ba’zi shartlarga aloqador. Ilmiy ma’lumotlarning yuqori darajasiga bo‘lgan talab birinchi galda olga suriladi, bu axborot davrida ayniqsa muhim, sababi ko‘pincha talabalarning fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi bugungi kunda turli ilmiy va metodik adabiyotlarda taklif etilgan fikrlar o‘qituvchi tomonidan asossiz takrorlanishi sababli yo‘qoladi. Ma’ruzaning ilmiy ma’lumotlarining mazmuniga ham – uning hajmiga, materialni tizimlashtirishga, uni metodik qayta ishlashga, misollar, faktlar, hujjatlar va boshqa ko‘rinishdagi illyustrativ bo‘limga, shuningdek, taklif qilish mantiqiyligiga alohida talablar qo‘yiladi. Ilmiy bilimlarni muhokama qilishda plyuralizm ma’ruzalarning

ajralmas atributi hisoblanadi. Shartlarning alohida guruhi – ma’ruza o‘qish jarayonida o‘qituvchining hatti-harakatlarining kommunikativ taktikasi hisoblanadi [5].

Ma’ruza jarayonida talaba-filologlarning lingvometodik kompetensiyasini shakllantirish olib boriladigan o‘qish jarayonidagi yetakchi fan «Qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi» hisoblanadi. So‘nggi o‘n yillikdagi kelajakdagi tilshunos-o‘qituvchining kasbiy ta’limidagi qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha oliy o‘quv yurti ma’ruza kursini optimallashtirish ilmiy muammosi ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Bu avalambor lingvometodikani turdosh fanlar – filologiya, pedagogika, psixologiya va boshqa yangi ilmiy ma’lumotlar bilan mahsuldor to‘ldirish bilan aloqador.

Professor N.A.Ippolitova metodist-olim M.T.Baranovning ma’ruza kursini ishlab chiqish tajribasiga tayanib ish olib borganini aytadi:

- ma’ruza mazmuni faqat ma’lumot berish emas, balki qiziqarli bo‘lishi zarur;
- ma’ruza mazmuni optimal tuzilgan bo‘lishi kerak;
- ma’ruza tuzilishi tinglovchilar tomonidan uning ma’nosini ochib berishning zaruriy komponenti sifatida tushinilishi kerak;
- ma’ruzadagi har bitta pozitsiya oldingisi asosida tuziladi va taklif etiladi va keyingisini tushinishga qaratilgan bo‘ladi;
- ma’ruza kursidagi metodik tavsiyalar qisqa (kichik xajmli) semantik bloklar ko‘rinishida, ularda oson takrorlanadigan va tushunarli kalit so‘zlar bo‘lishi zarur;
- aniq metodik kontseptsiyani amalga oshirishda qo‘yiladigan barcha talablar asosli, dalillarga tayangan, ishonchli bo‘lishi kerak;
- nima aytsangiz ham yodta tuting, faqat jonli so‘z tinglovchilarni to‘lqinlantiradi: ma’ruzachining vazifasi kelganlarni tinglashga majbur qilish emas, balki ularni buni qilish zarurligiga ishontirish [6].

Muammoli ma’ruzalar «lektsiya o‘qitishning dialog shakli»ni nazarda tutadi va uning predmeti «ma’ruzachi tomonidan kiritilgan material va mavzuning asosiy mazmunini aks ettiruvchi kognitiv vazifalar tizimi» [7].

Qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi va lingvometodik kompetensiyani shakllantirish texnologiyasi amalga oshiriladigan lingvistik tsiklning fanlari bo‘yicha muammoli ma’ruzalarni tuzish usullarini ko‘rib chiqamiz.

Ma’ruza mazmunini tanlashda, eng avvalo, talaba-filologlarning shakllangan tushuncha doirasi ko‘rsatiladi, bu vazifalar tizimi bilan konkretlashtiriladi. Shunday qilib, «Zamonaviy mакtabda qoraqalpoq tili kursining maqsadi, mazmuni va tuzilishi» mavzusidagi metodologiya bo‘yicha muammoli ma’ruza jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi: 1) lingvometodik kompetensiyaning kognitiv komponenti – talaba-filologlar tomonidan «maqsad qo‘yish», «pedagogikada maqsad», «qoraqalpoq tilini o‘qitishda kompetensiyaga asoslangan yondoshuv», «maktab o‘quvchilarining kommunikativ, lingvistik va madaniy kompetenciyasi,

«tillik yakkalik»; ona tilidagi umumiy ta’limning majburiy minimal mazmuni, qoraqalpoq tilining maktab kursi uchun bilim va ko‘nikmalarni tanlash tamoyillari haqida g‘oyalarni shakllantirish; 2) lingvometodik kompetenciyaning tezkorsalohiyat komponenti: asosiy va o‘rta maktablar uchun qoraqalpoq tilidagi o‘quv dasturlari va darsliklarni lingvometodik talqin etish qobiliyatini shakllantirish; 3) lingvometodik kompetenciyaning aksilogik tarkibiy bo‘limi: talaba-filologlarning ona tiliga qadriyatli yondoshuvini shakllantirish, zamonaviy pedagogik salohiyatning maqsad va mazmuniga yarasha pedagogik salohiyatni amalga oshirishga tayyorgarlik sifatida qadriyat yondoshuvini shakllantirish.

Muammoli ma’ruzaning maqsadiga erishish kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan matnlarni, shu jumladan, ma’ruza davomida o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan savollar va topshiriqlar tizimini tushinish jarayonida erishiladi.

Ma’ruza boshinda talaba-filologlarning diqqatini o‘rganilayotgan mavzu muammolariga qaratish uchun savollar tuziladi, masalan: Maqsad nima ekanini qanday tushunasiz? Nima uchun ta’lim jarayonida maqsad qo‘yish zarur? Qoraqalpoq tilini o‘rgatish nimani bildiradi? Bundan tashqari, o‘qituvchi ma’ruza darsining tarbiyaviy vazifasini amalga oshiradi: ma’ruzada talaba-filologlar qanday yangi narsalarni o‘rganadi va qanday ko‘nikmalarni egallaydi. Ma’ruzaning bu tarkibiy qismi talaba-filologlarni o‘qish va bilish faoliyatini kuchaytirishga chorlaydi.

Muammoli ma’ruzalarda mavzuning konceptual apparatini talqin etish ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Bu talqin turli ilm-fan yo‘nalishlari, falsafa, pedagogika, psixologiya, lingvistika, qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi va boshqa tegishli axborot manbalari orqali amalga oshiriladi. Bitta terminning turli aniqlamalarini talqin qishi natjasida talaba-filologlar o‘z fikrini rivojlantiradi. Shu bilan birga, talabalarning umumiy kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish muammosi yechilmoqda. Kelajakdagi pedagogik salohiyat uchun aniq bitta kontekst tuzish, o‘qituvchi tomonidan atamalarni talqin qilish jarayonida qo‘llaniladigan usullarni tushinishga yo‘naltirish muhim: bu yerda talabalarga qandaydir terminning lingvometodik talqini bo‘yicha topshiriq berish taklif etiladi. Shunday qilib, «tillik yakkalik» tushunchasi zamonaviy lingvometodikaning asosiy tushunchalaridan biri. O‘rganilayotgan mavzu doirasida bu tushinchcha tilshunos olim Yu.N.Karaulov (2004) tomonidan kasbiy pretsedent matnlarni talqin qilish jarayonida ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy maktab dasturlarida qoraqalpoq tilini o‘qitishning maqsad va vazifalari prizmasi orqali tushintiriladigan bu konsepsiyaning mazmunini talqin etib, talaba-filologning til shaxsining uzviy mulki – tilga bo‘lgan muhabbat haqida fikr bildiradi: «Bu amor linguare tuyg‘usi, - deb yozadi Yu.N.Karaulov, - ona tilida so‘zlovchi shaxsning qalbida ildiz otadi va ongsiz qolishi mumkin» [8]. Talaba-filologlar tomonidan «til shaxsi» tushunchasining ma’nosini teranroq tushinish, shuningdek, o‘z ona tiliga

qadriyatni shakllantirish uchun vazifa qanday hollarda, nimaning ta'sirida ekanligini tushuntirishdan iborat.

Ma'ruza mavzusining konceptual apparatini tizimli talqin etish o'qituvchi tomonidan ma'ruzaning asosiy mazmunini taklif qilish jarayonida uni samarali tushinish uchun zarur shart-sharoitlarni keltirib chiqaradi. Muammoli ma'ruzaning dolzarb mazmuni pedagogik holatni hosil qiladigan shaklda ishlangan. Biz metodika bo'yicha tasvirlangan ma'ruza mavzusi doirasida pedagogik holat qoraqalpoq tilidagi zamonaviy dasturlar va darsliklarda ta'lim mazmunini tanlashda bor munosabatlarni lingvometodik talqin etish zarurati sifatida qo'yiladi. Buning uchun mavzu bo'yicha tegishli ma'lumotlar taklif etiladi, talaba-filologlarning vazifasi bo'lsa qoraqalpoq tilidagi bor dasturlar mualliflarning maqsadni belgilash va mazmunni tanlash masalasi bo'yicha pozitsiyalarini qiyoslash hisoblanadi. Ma'ruzaning bu bosqichida ta'lim muhitini moslashtirishga muktab amaliyotidan illyustratsiyalar, masalan, turli darsliklardan foydalangan holda qoraqalpoq tili darslaridan parchalar, turli dasturdagi ish haqida filolog-o'qituvchilarining interv'yu -izohlari va boshqa yordam beradi. Turli mualliflar jamoasi tomonidan qoraqalpoq tilidagi dasturlar va darsliklarni ishlab chiqishga daxldor o'xshashlik va tafovutlarni jamoaviy talqin etish natijasida talaba-filologlar nazariy muammoga yangi qarashni ishlab chiqmoqda. Filolog-o'qituvchining pedagogik faoliyatining ilmiy-metodik muammolarini hal etishga tayyorligi bo'lajak filolog-o'qituvchining lingvometodik kompetensiyasini shakllantirish ko'rsatkichlaridan biri.

Qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi bo'yicha muammoli ma'ruzalar mazmunida professional ahamiyatga ega matnlarni lingvometodik talqin etishning turli darajalari tizimli kirgiziladi; shu bilan birga, filolog-o'qituvchining kelajakdag'i kasbiy faoliyati konteksti ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, tilshunoslik fanlaridan muammoli ma'ruza kurslariga matnni lingvometodik talqin etish ham joriy qilinmoqda. Ushbu taktika lingvistik tsikl fanlarini o'rganish jarayonida lingvometodik kompetencyani shakllantirishga asos bo'ladi. Masalan, sintaksis bo'yicha muammoli ma'ruzalarda talaba-filologlar oliv o'quv yurti va muktab darsliklaridagi «sintaksis», «so'z birikmasi», «gap», «matn» kabi kursning asosiy tushunchalarini aniqlashda turli yondoshuvlarni qiyoslaydi va ularni shakllantirishga harakat qiladi. Talabalarga muktabda sintaksisni o'rganishning XX asr boshidagi va XXI asrdagi sifatlovchi matnlarning pedagogik muammosiga bag'ishlangan matnlarni lingvometodik talqin etish taklif etiladi. Talqinni boshlab, talabalar hozirgi sintaksisda turli tushunchalar borligini biladi, matnlar bilan ishlash jarayoninde talaba-filologlar muktabda sintaksisni o'rganish muammolarini va tilshunoslik tushunchalarini o'zlashtirishning qiyinligi, o'qituvchining metodik tayyorgarligining kamchiliklari bilan aloqadorligi haqida muhim xulosaga keladi. Shunday qilib, tilshunoslik tamoyillarini o'rganish jarayonida matnni lingvometodik talqin qilish

fanlararo integratsiya va kasbiy yo‘nalish tamoyillarini amalga oshirishga imkoniyat beradi.

Bo‘lajak filolog-o‘qituvchilarning qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi va lingvistik tsikl distsiplinasi bo‘yicha muammoli ma’ruzalarida lingvometodik kompetenciyasini shakllantirish, shu jumladan, o‘qish jarayoni sub’ektlari tomonidan madaniy pedagogik muhitni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Talabalar va o‘qituvchilarning madaniyat kontekstida o‘zlarini sezish qobiliyatini ochib beradigan o‘ziga xos taktika sifatida (bu qobiliyat insoniylik ta’limining asosiy qadriyati va hosilasi sifatida talqin qilinadi [9], uning «qiziqishlari va imkoniyatlari bilan» [10] biz «Fikrlash» deb nomlangan tushunchalarni taklif etamiz.

«Fikrlash» har bitta darsning tuzilishidagi majburiy komponent bo‘lib, u mavzuni talqin qilishni qamrab oladi, mavzuni tanlash turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi. Bu, masalan, kun, hafta, oy voqeasi haqida gapirishni o‘z ichiga olgan taqvim prinsipi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, asosiy e’tibor o‘qituvchi yoki o‘quvchini to‘lqinlandirgan muammolarga (masalan, kitob, fil’m, spektakl’) va boshqa qaratilishi mumkin. Bu ishning uzviy sharti maktabda qoraqalpoq tilini o‘qitish imkoniyati yoki filolog- o‘qituvchining kasbiy faoliyati kontekstida ko‘rinadi. Bo‘lajak filologning lingvometodik kompetenciyasini shakllantirish uchun biz tuzgan pedagogik texnologiyada bu taktikaning paydo bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiramiz.

Metodika fani o‘quvchilarni so‘z orqali tarbiyalashda tajribaga ega. Biroq, bugungi kunda o‘qituvchi suhbat mavzuisini tanlash muammosiga ko‘proq duch kelmoqda: ularning onginigina emas, balki ma’naviyatiga ham ta’sir etish uchun talabalar bilan nimani muhokama zarur? Maktablarda doimo taqozo etiladigan uy, oila va do‘sstar mavzulari zamonaviy o‘qituvchi uchun talqin qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Maktab o‘quvchilariga zerikmaslik uchun bu mavzularni qanday aytish zarur? Shu bilan birga, esda tutish zurur, qoraqalpoq tili darsidagi har qanday suhbat faqat tarbiya va rivojlanishni emas, balki o‘qitishni ham o‘z ichiga oladi: o‘qituvchi va o‘qituvchining nutqi o‘quvchilarda turli kompetencyalarni shakllantiradigan namunaga aylanishi zarur – tildan kommunikativlikgacha. Shunday qilib, narasmiy fikr almashish ona tilini o‘qitishning umumiyligi tizimiga organik turda mos keladi va bu holatda, biz badiiy asar sifatida qoraqalpoq tilidagi dars haqida aytishimiz mumkin. Ammo savol tug‘iladi: o‘qituvchi bunday ishga tayyormi? Buning uchun o‘quvchilar uchun qiziqarli va foydali mavzuni tanlay olish, o‘quv jarayonida qo‘yiladigan psixologik, pedagogik va lingvometodik talablarni hisobga olgan holda bo‘lajak suhbatni modellashtirish kerak. Ko‘pincha poradoksal holat bor: ona tilini o‘rgatishda o‘qituvchi o‘zining kommunikativ qobiliyatining yetarli darajasini ko‘rsata olmaydi, shu bilan birga uning inson hayotining turli tomonlariga

bo‘lgan nuqtai nazari doimo aniq emas. Filolog-o‘qituvchini kasbiy tayyorlash tizimiga talaba-filologning pedagogik pozitsiyasini shakllantirish bilan birga uning lingvometodik va kommunikativ kompetencyalarini shakllantirishga yordam beradigan maxsus taktikani kiritish natijasida o‘ziga xos xususiyatni belgilaydi.

Talaba-filologning kasbiy tayyorgarligida «Aks ettirish» taktikasi bir-biri bilan aloqador bo‘lgan bir nechta bosqichlar jarayonida amalga oshiriladi. «Aks ettirish»ning birinchi bosqichining maqsadi sinfda talqin qilish uchun material tanlashni o‘rgatish, buning asosida mакtab o‘quvchilarining qadriyat yo‘nalishlarini, shuning ichida o‘z ona tilida qadriyat yondoshuvlarini natiyjali shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bu bosqichda o‘qituvchining o‘zi bu mavzularni olib beradigan matnlari lingvometodik talqin uchun mavzular va vazifalar tizimini taklif etadi. Demak, taqvim prinsipiiga rioya etgan holda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda davlat va diniy bayramlar, jahon va milliy madaniyatning tarixidagi muhim sanalar haqida fikr yuritadi.

Suhbat mavzusi har xil yo‘llar bilan yuzaga keladi. Masalan, mart oyining oxirgi o‘n kunligidagi dars quyidagicha boshlanishi mumkin: «Agar oylarning barcha nomlari alifbo tartibida bo‘lsa, mart oyi qanday nomlanar edi? Bu savolga 10 sekund ichida javob bera olasizmi? Keyin biz asosiy so‘zlar bo‘yicha suhbat nima haqida bo‘lishini chamalashga harakat qilamiz: mart, sentyabr, quyosh, bahor, kuz. Shunday qilib, biz mavzuni tuzamiz: «21 mart – bahorgi kun tenglashgan kun». Shunday qilib, talabalar bu masaladan qay darajada xabardor ekanligini bilib olamiz. Shu bilan birga, biz filolog-o‘qituvchi nima uchun bu haqida umumiy bilish kerakligi haqida o‘ylarmiz va kerakli ma’lumotlarning taxminiy doirasini belgilaymiz. Bu yerda atlaslar, qomuslar, hatto globusni, ya’ni birinchidan, o‘quvchilarga o‘zlarining bo‘shliqlarini to‘ldirishga imkon beradigan, ikkinchidan, ularga aniqlik bilan ishslash mumkin bo‘lgan variantini ko‘rsatadigan hamma narsalarni berish maqsadga muvofiq. Keyin, biz qoraqalpoq tili mакtab kursining turli bo‘limlari bilan bog‘liq savollar va topshiriqlarni shakllantiramiz, shu bilan birga «Aks ettirish» mavzusiga mos keladigan o‘qish ma’lumotlarining imkaniyatlarini aniqlash uchun qoraqalpoq tili darsliklaridan materiallarni foydalanamiz. Bahorgi kun tenglashishi mavzusidagi suhbatni yakunlab, talabalar «tabiat – inson» muammozi, bugungi mакtab o‘quvchilari insonning tabiatga aloqasi haqida qayg‘urishi, bu mavzuning mumkin bo‘lgan axloqiy tomonlari haqida o‘yaydi. Yakunlab aytganda, mакtabda qoraqalpoq tili darsida u qo‘llagan metod va usullardan qaysi biri qo‘llanilishi mumkinligini aniqlash uchun o‘qituvchining texnikasi talqin qilinadi.

«Aks ettirishlar» mavzusidagi o‘z ko‘rinishini topgan g‘oyalarning timsoli faqat qoraqalpoq tili darsining hamma bosqichlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish bo‘ladi: oliy mакtab pedagogikasi nuqtai nazaridan, bu tamoyilni amalga oshirish haqida aytish zarur. Fanlararo integratsiya – lingvistik tsiklning o‘rganilayotgan fanlari

bo‘limlari bilan qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi bo‘limlari o‘rtasidagi aloqalar. Bu aloqa talabalar e’tiborini qoraqalpoq tilini maktab o‘quvchilariga o‘qitish jarayonida pedagogik fikrlashish muammosiga qaratadi.

«Aks ettirishlar» taktikasini amalga oshirishning ikkinchi bosqichida talaba-filologlar o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan mavzu bo‘yicha mustaqil holda savol va topshiriqlar tuzish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Oldingi darslarda «Aks ettirishlar» qanday o‘tkazilganiga o‘xshab, o‘quvchilar qoraqalpoq tilidagi maktab darsliklaridan foydalangan holda o‘zlarlarining versiyalarini ishlab chiqadi. Dastlabki tayyorgarlik da mumkin: bu holatda talabalar qo‘srimcha material tayyorlashi uchun taxminiy mavzu oldindan e’lon qilinadi.

Uchunchi bosqichda talabalar mustaqil shaklda o‘quvchiga yo‘naltirilgan «Aks ettirish» mavzuisini tanlaydi va uning lingvometodik talqinini amalga oshiradi. Bo‘lajak filologlar tomonidan ishlab chiqilgan «Aks ettirish»larni jamoaviy talqin qilish jarayonida o‘quvchilar hamma narsani oldindan ko‘rishning iloji yo‘qligiga ishonch hosil qiladi, sababi, qoida shaklida, talabalar bilan suhbat o‘qituvchilarni oldindan rejalashtirilmagan savollarga olib keladi. Bu bosqichda o‘qituvchi lingvodidak olim A.A.Murashov tomonidan shakllantirilgan pedagogik ritorikaning muhim tarkibiy bo‘laklarini ochib berishi maqsadga muvofiq: «Darsning kommunikativ tuzilishi modellarining mavjudligi (shuning ichida, dialogda qiyin hollardan shiqa olish imkonini beradiganlar; tashkil topgan va stixiyaviy fikrlashishda (ixtirochilik) o‘qituvchining ijodiy og‘zaki va fikrlash faoliyatining imkoniyati» [11]. Psixologiya va pedagogika, tilshunoslik va lingvometodikaning fundamental bilimlariga, filolog-o‘qituvchining umumiyligi bilimiga asoslangan improvizatsiya unga qoraqalpoq tili darsidagi pedagogik holatlarni talabalar bilan norasmiy muloqot jarayonida samarali yechish imkonini beradi. O‘qituvchining o‘z vaqtida muloqotda to‘g‘ri burilish topishga tayyorligi o‘quvchilarga o‘qituvchida hayotga intiluvchi, maktab o‘quvchilaridagi shaxsiyatni ko‘radigan shaxsni ko‘rishga yordam beradi.

Talaba-filologning o‘qish va anglash jarayonida ijtimoiy-madaniy muhitni hosil qilish – bu kelajakdagagi filolog-o‘qituvchi yuqori rivojlangan til shaxsi bo‘ltshning samarodor usuli, talabalar bilan keyingi muloqotga tayyor, sababi u dialogta. «Bolaning shaxsiyatini erkin ochib berish – o‘z nuqtai nazarini irodali, chin dildan aks ettirish. Dialogli o‘z aro ta’sir, madaniyatlar dialogi, muloqot dialogi – bu talabaning o‘zini-o‘zi ko‘rsatishining o‘ziga xos usuli, aqliy, hissiy va ma’naviy layoqatning birligi...» [12].

«Aks ettirish» taktikasi bo‘lajak filologlarga pedagogik ritorikaning ijodiy imkaniyatlarini, darsning ijodiy ahamiyatini ko‘rsatadiki, bu esa «o‘qituvchining kommunikativ yetakchi sifatidagi mahorat omiliga aylangan motivatston ketma-ketlik qonunlariga yarasha tuzilgan darsning tillik asarga aylanishida ishtrokkhilarning xatti-harakati». Bo‘lajak qoraqalpoq tili darslari uchun «Aks ettirish» ishlab chiqish

va ularni ma’ruzalarda sinash orqali talaba-filologlar pedagogik salohiyat kontekstiga yuklanadi, kasbiy salohiyat motivlarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, talaba-filolog – bo‘lajak o‘qituvchi-filolog – qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi va lingvistik tsikl fanlari bo‘yicha akademik va muammoli ma’ruzalarda lingvometodik kompetenciyanı shakllantirish jarayonini ishlab chiqish natijasida bu jarayonning normativ modeli – pedagogik texnalogiya proektiv ta’lim xususiyatlarini oldi, uning mohiyati «talabaning o‘tmishdagi tajribasini uzatishda emas, u uning shaxsiy va umummadaniy rivojini ta’minlaydigan shaxsiy tajribasini kengaytirishdan iborat». Loyihaga asoslangan ta’limning bu tushunchasi bo‘yicha, uning maqsadi talabalarga «bilimlarni o‘zлari ishlab chiqish, barcha fanlar bo‘yicha o‘qish materiallarini ishlab chiqish» imkonini berish, «muammolarni mustaqil hal etishga o‘rgatish». Ko‘р yillik amaliyot bilan tasdiqlangan loyiha faoliyatning unumdorligi olim-didaktlarga loyiha ta’limini uzlucksiz ta’lim turi sifatida ko‘rib chiqishga asos bo‘ladi. «Uning o‘zi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish vositasi, u faqat tarbiyaviy emas, balki hayotiy ma’noni ham qamrab oladi» [13].

Shuni belgilash zarur, muammoli ma’ruzalar «muammoli holatlarni yechishda mutaxassislarning faolligi uchun o‘qish modeli bo‘lib, kontekstli ta’limning nazariylik mazmunini ishlab chiqish va o‘zlashtirishni ta’minlaydi [14].

ADABIYOTLAR

1. Попков В.А. Теория и практика высшего профессионального образования: учеб, пособие для системы дополнительного педагогического образования. - М.: Академический Проект, 2004. - С.70-71.
2. Казакова А.Г. Педагогика профессионального образования: монография. - М.: Экон-Информ, 2007. - С.299.
3. Бордовская Н.В. Педагогика: учебное пособие. - СПб.: Питер, 2006. - С.102.
4. Загвязинский В.И. Теория обучения: Современная интерпретация: учеб, пособие для студ. высш. пед. учеб, заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2004. - С.149.; Бордовская Н.В. Педагогика: учебное пособие. - СПб.: Питер, 2006. - С.104.; Казакова А.Г. Педагогика профессионального образования: монография. - М.: Экон-Информ, 2007. - С.296-308.
5. Морева Н.А. Технологии профессионального образования: учеб, пособие для студ. высш. учеб, заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2007. - С.130-131.; Осмоловская И.М. Словесные методы обучения: учеб, пособие для студ. высш. учеб, заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2008. - С.67.
6. Ипполитова Н.А. Вспоминая профессора М.Т.Баранова // Михаил Трофимович Баранов – учёный и человек; - М.: Прометей, 2005. - С.31.
7. Морева Н.А. Технологии профессионального образования: учеб,

пособие для студ. высш. учеб, заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2007. - С.130.

8. Караполов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. - М.: Едиториал УРСС, 2004. - С.259.

9. Галицких Е.О. Диалог в образовании как способ становления толерантности: учебно-методическое пособие. - М.: Академический Проект, 2004. - С.34.

10. Акулова О.В. Изменение целей педагогической деятельности: контекст связи образования и качества жизни человека // Человек и образование, 2006. - №6. - С.28.

11. Мурашов А.А. Педагогическая риторика. - М.: Педагогическое общество России, 2001. - С.96.

12. Любичева Е.В. Посредством Слова творю я мир... Книга первая. О культуре Слова, о тайнах Звука и загадках Буквы. 5 класс. Пособие по русскому языку для учителей-словесников. - СПб.: ООО «Издательство ДНК», 2002. - С.7.

13. Колесникова И.А. Педагогическое проектирование: учеб, пособие для высш. учеб, заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2007а. - С.26-27.

14. Вербицкий А.А. Контекстное обучение и становление новой образовательной парадигмы. - Жуковский: МИМ ЛИНК, 2000. - С.31.

XORIJIY TIL TA'LIMIDA GAZETA MATERIALLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Begmatov M.B.
(SamDChTI professori, f.f.n.)

Annotatsiya. Ma`lumki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatimiz dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy hamda ijtimoiy yangiliklardan uzlusiz boxabar bo`lib turishi uchun albatta xorijiy malakatlarning ommaviy axborat vositalarida berilib boradigan axborotlarni olib turishi taroqqiyotda ham muhim o`rin tutadi. Mazkur maqolada esa mashg`ulotlarda gazeta maqolalaridan foydalanishning ba`zi xususiyatlarini yoritishga urinamiz.

Kalit so`zlar: matn, leksik va grammatik qiyinchliklar, lingvistik xususiyat, gazeta materiallari, o`quituvchi izohlari.

Annotation. It is known that in order for our rapidly developing country to be continuously aware of the economic and social news happening in the world, it is important for the development of foreign countries to receive the information given